

M.MUXAMEDOVA

ME'MORCHILIK ASOSLARI



TOSHKENT

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

M.MUXAMEDOVA

ME'MORCHILIK ASOSLARI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2018

UO‘K: 72.01(075.8)

KBK 85.11

M 96

M 96

M.Muxamedova. Me‘morchilik asoslari. –T.: «Fan va texnologiya», 2018, 296 bet.

ISBN 978-9943-11-927-7

Mazkur o‘quv qo‘llanma me‘morchilikning estetik talablari, texnik mukammalligi, binolar klassifikatsiyasi, asosiy soha va turlari, binolar konstruksiyasi, me‘morchilikning rivojlanish an‘analari, yangi tipdagi binolarning funksionalligi va konstruktiv mustahkamligi bilimlarini o‘zlashtirishga yo‘naltiriladi.

“Me‘morchilik asoslari” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga yetakchi xorijiy oliy o‘quv yurtlarida ishlab chiqilgan ilmiy qo‘llanmalar asosida me‘morchilikka oid ilmiy yangiliklar kiritilgan. Ushbu o‘quv qo‘llanma doirasida Qadimgi Misr, Old Osiyo, Uzoq Sharq me‘morchiligi, Qadimgi Gretsiya ibodatxonalarida qurilish konstruksiyalari va order sistemalari (doriy, ion, korinf), qadimgi Rim ustun-to‘sin sistemasiga yangi konstruksiyalar kiritilishi (kompozit va toskan orderlari) akveduk, amfiteatr, forum, insulalar qurilishi, Vizantiya va ilk xristianlar davri arxitekturasi, roman va gotika uslubi me‘morchilik asoslari, Uyg‘onish va barokko davri shaharsozligining rivojlanish an‘analari, klassitsizm va ampir uslubi asoslari, eklektizm, modern, konstruktivizm, funksionalizm uslublarining zamonaviy uslublar rivojidadagi o‘rni, yangi tipdagi binolarning funksionalligi va konstruktiv mustahkamligini o‘rganish kabi mavzular mujassamlashtirilgan.

O‘quv qo‘llanmaning asosiy dolzarbligi talabalarga Sharq va G‘arb, umuman olganda jahon me‘morchiligining tarixi va nazariyasini o‘rgatish, me‘morchilik tarixining tadriji, rivojlanish qonuniyatlarini o‘zlashtirish, turli uslublarning yuzaga kelishi va shu uslublar ta’sirida bunyod etilgan obidalar me‘morchiligini yoritib berishdir.

UO‘K: 72.01(075.8)

KBK 85.11

Taqrizchilar:

J.X.Ismailova – t.f.d., professor, O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori;

T.B.Ahmedov – Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti «Tasviriy san‘at tarixi va nazariyasi» kafedrasi dotsenti.

ISBN 978-9943-11-927-7



© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2018.

"ME'MORCHILIK ASOSLARI" FANIGA KIRISH. ME'MORCHILIK SOHA, TURLARI VA USLUBLARI.

Reja

1. Arxitektura atamasiga ta'rif
2. Me'morchilikda binolar qurilishida qonuniyatlar
3. Binolar klassifikatsiyasi
4. Me'morchilikda uyg'unlashuv asoslari
5. Me'morchilik uslublari

Jahon me'morchiligi tarixini o'rganish uning taraqqiyot qonunlarini tekshirish, nodir yodgorliklar bilan odamlarining his-tuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish, g'oyaviy-estetik qarashlarining shakllanishini bilish demakdir. Bu so'zsiz insonga hayotiy tajribalarni boyitishga, hayotga yanada keng va atroflicha yondashishga yordam beradi. Me'morchilik tarixi odamzodning go'zallik yaratishidagi muvaffaqiyatining dalilidir. Hashamatli inshoot qurish, uning barqarorligi, kuchi, foydasini muhokama qilish asli muhandislik ishi. Keyinchalik bu arxitekturaning asosiy ishiga aylandi. Hozirda bu eng foydali san'at va foydali san'atning eng oliysidir. Arxitektura tarixi turli yerlar va davrlardagi me'morchilik uslublari, yutuqlarini, rivojlanishning yirik harakatlarini o'zida aks ettirgan¹.

Bo'lg'usi me'morlar uchun me'morchilik tarixini o'rganish, bilish juda muhim omillardan biridir. «Arxitektura tarixi» fanini aniqlashda, me'morchilik o'z oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqib, insoniyat taraqqiyotining dastlabki davrlaridan boshlab o'rganiladi.

Arxitektura grekcha so'z bo'lib – "bosh quruvchi" degan manoni anglatadi. Binoni qurish san'ati, hamda majmualarni jamiyat talablariga nafaqat amaliy xizmat, balki, badiiy-g'oyaviy jihatdan uyg'unligini hal qilishi kerak.

¹History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSITY, 1998 SEVENTH EDITION, p.6. Introduction. (A history of architecture is record of man's efforts to build beautifully. Only when the idea of beauty is added to that of use does a structure take its place among works of architecture. Architecture is the most useful of the fine arts and the noblest of the useful arts.) P20. CHAPTER 1. PRIMITIVE AND PREHISTORIC ARCHITECTURE.(EARLY BEGINNINGS. It is impossible to trace the early stages of the process by which true architecture grew out of the first rude attempts of man at building. The rude and elementary structures built by savage and barbarous peoples, like the Hottentots or the tribes of Central Africa, are not in themselves works of architecture, nor is any instance known of the evolution of a civilized art from such beginnings. So far as the monuments testify, no savage people ever raised itself to civilization, and no primitive method of building was ever developed into genuine architecture, except by contact with some existing civilization of which it appropriated the spirit, the processes, and the forms).

Bino va inshootlarni qurilishida ruxsat berilgan amaliy, eng sodda maqsadlarni bevosita badiiy ijodiy uyg'unlik bilan birga hal qilinishi kerak. Arxitektura inshootlari jamiyat madaniyatining bir bo'lagi bo'lishi bilan birga, u san'at asari hamdir.

Shunday qilib, arxitektura insoniyat taraqqiyotining bir turi bo'lib, uni oddiy qurilish ishi bilan chegaralab bo'lmaydi, lekin, uni faqat badiiy ijod turi deb ham bo'lmaydi.

"Har bir davrda arxitektura tushunchasi turlicha talqin etilgan. Rim me'mori Vitruviy klassik formula bo'yicha me'morchilik inshootining asosiy sifatini quyidagicha belgilagan: *mustahkamlik, foyda va chiroylilik*".²

Vitruviy bu ta'limotida shuni talab qilganki, binoning forma va kompozitsiyasi insoniyatning eng kerakli talablariga, halq an'alariga, o'sha joy iqlimiga, xalq urf-odatlariga, moslashtirishdan iborat".³

Feodalizmning erta davrlarida arxitektura tushunchasi bir oz toraydi. Uning vazifalari asosan qa'la, ibodatxona, qo'rg'onlar qurilishi bilan chegaralandi. Me'morchilik inshootlari insoniyatning tafakkuri hamda qarashlariga asosiy ta'sirini o'tkazadi.

Inson binoga qarab, uning yengilligi yoki og'irligini, bejirimligi yoki qo'polligini, past va balandligini, yaxlitligini va kompozitsiyasining aniqligi, uning formalarining bo'laklarini his eta oladi va o'z ta'sirini o'tkazadi.

Inson binoga kirib, uning ichki fazoviy kengligi, mahobatli ravoqlar, baland gumbaz, yuksak badiiy ishlov berilgan stalaktitalar, o'z o'rnida bino xarakteriga mos ravishda ishlatilganligiga hayratlanadi.

Asrlardan asrlarga o'tgan sayin me'morlarga bo'lgan talab kuchayadi. Arxitekturaviy yo'nalishni o'rganish ko'pgina davrlardanoq saroy va maqbarani, xalq turar joylarini o'rganishdan boshlanadi. Saroy va maqbaralar formalaridan ularning oddiy asosdan rivojlanishi topiladi. Xalq san'atining kuchi uning o'ziga xos yorqin xarakterli topilmalarini tarixiy monumental asarlarda yetkazib beradi.

Qadimgi Misrning piramida va Gretsiyaning maqbaralarida "abadiylik" g'oyalari aniq namoyon bo'lib, Qadimgi Misr arxitekturasida monumental g'oyalar farqlanadi. Misr maqbara, piramidalari firavnlr hokimiyatining abadiyligi bilan birga, ularning quldorlikni

²A World History of architecture. Marian Moffet, Michail W Fario, Lawrence Wodehouse. London. 2003. P.1. Introduction. (The roman architect and engineer Vitruvius, active around 40 BCE, considered the essentials of architecture to be *firmitas, utilitas, and venustas, commonly translated as firmness, commodity, and delight*).

³A World History of architecture Marian Moffet, Michail W Fario, Lawrence Wodehouse. London. 2003. P.1. Introduction. (Here firmness is structural stability, commodity is the meeting of functional requirements, and delight is beauty).